Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI

Egamberdiyeva Xayotxon Numanjanovna
Xonobod shahar davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i
https://doi.org/10.5281/zenodo.21929538

Annotatsiya: Maqola buxgalteriya hisobi va auditning iqtisodiyotdagi ahamiyatini tahlil qiladi. Buxgalteriya hisobi iqtisodiy jarayonlarni hujjatlashtirish va ularga tegishli tahlillarni amalga oshirish orqali korxonalar faoliyatini samarali boshqarishda muhim vosita sifatida ko'riladi. Audit esa, buxgalteriya ma'lumotlarining ishonchliligini ta'minlash va moliyaviy xatolarning oldini olishga yordam beradi. Maqolada ushbu ikki yo'nalishning o'zaro bog'liqligi va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni yoritiladi.
Kalit so'zlar: Buxgalteriya hisobi, audit, iqtisodiyot, moliyaviy boshqaruv, moliyaviy hisobot, tahlil, ishonchlilik, xatarlarni boshqarish, korxona samaradorligi, nazorat tizimi, qonunchilik, standartlar, soliqlar, hisob siyosati, investitsiyalar.

Abstract: The article analyzes the significance of accounting and auditing in the economy. Accounting is viewed as an essential tool for efficiently managing business activities by documenting economic processes and conducting relevant analyses. Auditing, in turn, ensures the reliability of accounting data and helps prevent financial errors. The article highlights the interconnection between these two fields and their role in economic development
Key words: Accounting, audit, economy, financial management, financial reporting, analysis, reliability, risk management, business efficiency, control system, legislation, standards, taxation, accounting policy, investments.

Аннотация: В статье анализируется значимость бухгалтерского учета и аудита в экономике. Бухгалтерский учет рассматривается как важный инструмент для эффективного управления деятельностью предприятий через документирование экономических процессов и проведение соответствующего анализа. Аудит, в свою очередь, обеспечивает достоверность бухгалтерских данных и помогает предотвращать финансовые ошибки. В статье освещается взаимосвязь этих двух направлений и их роль в развитии экономики.
Ключевые слова: Бухгалтерский учет, аудит, экономика, финансовое управление, финансовая отчетность, анализ, надежность, управление рисками, эффективность предприятия, система контроля, законодательство, стандарты, налоги, учетная политика, инвестиции.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich: -"Bugungi kunda mamlakatimizning iqtisodiy siyosatida bir maqsad aniq– bu inson manfaatlarini ro'yobga chiqarishdir. Iqtisodiyot rivojlanmasa, odamlar hayoti yaxshilanmaydi. Shuning uchun biz iqtisodiy islohotlarni izchil davom ettiramiz." {1}

So'ngi yillarda buxgalteriya hisobi yo'nalishiga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Chunki iqtisodiyotning inqirozga yuz tutishini oldini olishda buxgalteriya hisobi yo'nalishi juda muhim ahamiyatga ega. Natijada o'z o'zidan auditga bo'lgan talab ham ortib boradi. Chunki buxgalteriya moliyaviy hisobotlarining aniq va ishonchli bo'lishida auditorlik faoliyati ham muhim ahamiyatga ega. Buxgalteriya hisobi va audit iqtisodiyotni boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlardir. Buxgalteriya hisobi korxonalar moliyaviy holatini hujjatlashtiradi va ular faoliyati bo'yicha aniq

ma'lumotlarni taqdim etadi. Audit esa, ushbu ma'lumotlarning ishonchliligini tekshiradi va moliyaviy xatoliklarni aniqlash orqali korxonalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Iqtisodiy faoliyatning shiddat bilan o‘zgarayotgan sharoitida buxgalteriya hisobi va audit nafaqat korxonalar uchun, balki butun iqtisodiy tizimning barqarorligini ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

MAVZUGAOIDADABIYOTLARNINGTAHLILI

Buxgalteriya hisobini paydo bo'lishidan tortib to hozirgi kungacha rivojlanishi evolyutsiyasini tahlil etish bu sohaning bugungi va kelajakdagi holatini tahlil etishga urinish natijasida yaqin bir necha yillar mobaynida mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan buxgalteriya hisobining tarixiy rivojlanishini chuqur o'rganishga bo'lgan qiziqishlar ortib borishiga turtki bo'lmoqda. Olimlarning joylashuvi, tadqiqot olib brogan davrlariga ko'ra buxgalteriya hisobining paydo bo'lishi va rivojlanishining tarixi turli omillarga, jumladan insonning paydo bo'lishi va uning ongi rivojlanishiga, davlatlarning shakllanishiga, fan-texnikaning rivojlanishi kabilarga bog'lab o'rganilgan. ProfessorV.T. ChayavaO.V. Latipovalar fikriga ko'ra buxgalteriya hisobi ibtidoiy jamoa davrida vujudga kelgan. Buning asosiy sababi, ushbu davrda mehnat qurollarining takomillashmaganligi, turli xildagi ekologik muammolarga insonlarning tayyor emasligi va oziq-ovqat yetishmasligi natijasida zaxiralar yasharish hamda ularning hisob-kitobini yuritish bo'lgan[2]. Professor K.Karderiva N.Toshmamtovlar o'z tadqiqotlarida buxgalteriya hisobi tarixini dinning paydo bo'lishi va rivojlanishiga bog'laydilar. Ularning nazariyalari diniy ilmlarda buxgalteriya hisobining tamoyillari, maqsadlari va moliyaviy axborotlarni taqdim etish usullari yorilganligini asoslaydi[3], [4]. Professor A.Ch.Litterlon esa buxgalteriya hisobini vujudga kelishi hamda takomillashuvini olamning tabiiy o'zgarishlari bilan chambarchas bog'liq deb qaraydi[5]. Professor Ya.V.Sokolov buxgalteriya hisobining tarixiy shakllanish evolyutsiyasini ilmiy qarashlar va amaliy sabablar asosida tasniflaydi[6]. Buxgalteriya hisobi paydo bo'lish tarixiga bo'lgan yondashuvlar turfa xil bo'lganligi kabi hisobishlarining takomillashishi va ularni davriylashtirishga bo'lgan qarashlar ham bir biridan farq qiladi. Bu borada mamlakatimiz olimlaridan N.Toshmamatov va boshqa bir necha olimlar, shuningdek, xorij olimlaridan Ya.V.Sokolov, A.M.Galagan, J.Sharar Russo [7], L.Gelbert [8], B.T.Bakster [9], M.I.Sidorova va boshqa olimlar o'z tadqiqotlarida va ilmiy nashrlarida keng yoritib berganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada buxgalteriya hisobi va audit yo’nalishining iqtisodiyotdagi o’rnini tahlil qilish maqsadida jahon tajribasini o’rganish uchun quyidagi tadqiqod metodologiyasi qo’llanildi:

1. Ma’lumotlarni to’plash Tadqiqotda ishonchli manbalar va ilmiy maqolalar asosida iqtisodiyotdagi buxgalteriya hisobi va auditning o’rni, uning turli sohalarda ishlatilishi va buxgalteriya hisobi va auditning o’zaro bog’liqligini o’rganish maqsadida buxgalteriya hisobi va auditga bog’liq ma’lumotlar to’plandi.Ushbu ma’lumotlar turli xalqaro ilmiy bazalardan, xususan, Scopus, Web of science, Google scholar kabi manbalardan olindi.
2. Adabiyotlar tahlili Buxgalteriya hisobi va auditning bugungi kundagi iqtisodiyotdagi ahamiyatini tushuntirish maqsadida turli iqtisodiy me’zonlar bilan bog’liqligi o’rganildi, xususan, hisob siyosati, ichki nazorat tizimi hamda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHS) ga bog’liqligi o’rganildi.
3. Qiyosiy tahlil Tadqiqotning asosiy qismida O’zbekiston Respublikasining iqtisodiy holati haqida statistic ma’lumotlar olindi, jumladan 2024- yildagi sanoat sihlab chiqarish fizik hajmi, iste’mol narxlar indeksi, chakana savdo Tovar aylanmasi va boshqa iqtisodiy ko’rsatkichlar qiyosiy tahlil qilindi.
4. So’rovnoma va intervyular Iqtisod sohasidagi mutaxassislar jumladan malakali buxgalter va auditorlar o’rtasida so’rovnoma va intervyular olindi. Bu ma’lumotlar buxgalteriya hisobi va auditning iqtisodiyotdagi ahamiyatini yoritishda muhim ahamiyat kasb etdi. Tadqiqiod metodologiyasi buxgalteriya hisobini yuritish hamda auditorlik faoliyatini o’tkazish jarayonini samaradorligini har tomonlama o’rganishh imkonini berdi. Qo’llangan usullar natijasida iqtisodiy jarayonlar, hususan

buxgalteriya hisobi va auditning iqtisodiyotdagi o'rni hamda ularning o'zaro bog'liqligi to'g'risida asosiy va to'liq tasavvur hosil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotda turli sohalarda, xususan tadbirkorlik firmalari, konxonalar, shirkatlarda buxgalteriya hisobi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan auditorlik faoliyati ham buxgalteriya hisobotlarining shaffof va ishonchli bo'lishi uchun muhim o'rin tutadi. Quyida buxgalteriya hisobi va auditning iqtisodiyotga, xususan xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHS), hisob siyosati hamda ichki nazorat tizimi va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarga bo'g'liqligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

1.Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHS)

1. XMHS va buxgalteriya hisobi Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHS) buxgalteriya hisobi tizimining yagona standartlar asosida ishlashini ta'minlaydi. Ularning asosiy maqsadi buxgalteriya hisobotlarini xalqaro miqyosda birxillashtirish va ularni turli mamlakatlarda bir xil tushuniladigan holga keltirishdir. XMHS quyidagi jihatlari bilan buxgalteriya hisobiga ta'sir qiladi:

• Moliyaviy hisobotlarning aniqligi: XMHS korxonalardan aktivlar, majburiyatlar, daromad va xarajatlarni belgilangan tamoyillar asosida hisobga olishni talab qiladi, bu esa hisobotlarning aniqligini oshiradi.

• Shaffoflik va taqqoslash imkoniyati: XMHS asosida tayyorlangan hisobotlar investorlarga va boshqa manfaatdor tomonlarga moliyaviy holatni aniq baholash imkonini beradi.

• Buxgalteriya hisobining murakkabligi: XMHS'ga o'tish buxgalterlar uchun yangi bilim va ko'nikmalarni talab qiladi, chunki bu standartlar ba'zan mahalliy buxgalteriya qoidalaridan farq qiladi.

2. XMHS va audit XMHS faqat moliyaviy hisobotlar tayyorlash jarayoniga ta'sir qilmay, balki audit faoliyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Auditorlarning vazifasi XMHS asosida tayyorlangan hisobotlarning haqiqatga mosligini tekshirish va tasdiqlashdan iborat. Bunda quyidagi jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

• Auditorlik jarayonining standartlashuvi: XMHS xalqaro audit standartlari (XAS) bilan uyg'unlashgan bo'lib, auditorlarga bir xil tamoyillar asosida ishlash imkonini beradi.

• Tushunmovchiliklarni kamaytirish: XMHS asosidagi audit jarayonida auditor va korxona o'rtasidagi moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish bo'yicha kelishmovchiliklar kamayadi, chunki standartlar aniq va batafsil bayon etilgan.

• Tavakkalchilikni boshqarish: XMHS auditorlarga korxona faoliyatidagi muhim moliyaviy tavakkalchiliklarni aniqlash va baholashda yordam beradi.

3. XMHSning buxgalteriya hisobi va audit o'rtasidagi ko'prik vazifasi XMHS buxgalteriya hisobi va audit o'rtasida o'ziga xos ko'prik vazifasini bajaradi.

Ushbu standartlar auditorlarga korxonalar tomonidan tayyorlangan moliyaviy hisobotlarni baholashda aniq mezonlar beradi, shu bilan birga, buxgalterlar va auditorlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi. Bu jarayon:

• Moliyaviy hisobotlarning sifati: XMHS asosida tayyorlangan hisobotlarning aniq va to'g'ri bo'lishi auditorlik jarayonini osonlashtiradi.

• Mas'uliyatning oshishi: XMHS buxgalterlar va auditorlardan yuqori darajadagi mas'uliyatni talab qiladi, chunki ular xalqaro talablarni to'liq tushunishi va ularga rioya qilishi kerak.

• Global bozor uchun moslashuvchanlik: XMHS auditorlik faoliyatini global miqyosga moslashtirishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa korxonalarni xorijiy investorlar uchun yanada jozibador qiladi.

Hisob siyosati Hisob siyosatining mazmuni Hisob siyosati – buxgalteriya hisobini yuritishda va moliyaviy hisobotlarni tuzishda korxona tomonidan tanlanadigan tamoyillar, usullar va qoidalar yig'indisi.

U korxonaning moliyaviy ma'lumotlarini aniqlik, shaffoflik va qonunchilikka muvofiqlikni ta'minlaydi. Hisob siyosati va buxgalteriya hisobi

• Yagona tamoyillar: Hisob siyosati buxgalteriya amaliyotini standartlashtiradi va hisobotlarni taqqoslash imkonini beradi.

• Moliyaviy natijalar: Tanlangan siyosat daromad va xarajatlarni hisobga olishda muhim ahamiyat kasb etib, moliyaviy ko‘rsatkichlarga ta'sir ko‘rsatadi.

• Moslashuvchanlik: Korxonaning faoliyatiga xos o‘zgarishlar hisob siyosatini yangilashni talab qiladi. Hisob siyosati va audit

• Auditorlik mezoni: Auditorlar hisob siyosatining xalqaro va milliy standartlarga muvofiqligini tekshiradi.

• Xatarlarni aniqlash: Hisob siyosatining noto‘g‘ri qo‘llanilishi moliyaviy hisobotdagi xatoliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

• Tahlil imkoniyatlari: To‘g‘ri ishlab chiqilgan hisob siyosati auditorlik jarayonini osonlashtiradi va ishonchni oshiradi.

2. Ichki nazorat tizimi

• Ichki nazorat tizimi buxgalteriya hisobi va auditning ajralmas qismi hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi korxonaning moliyaviy ma’lumotlarinin ishonchliligini ta’minlash, qonun va normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqligini nazorat qilishdir.

• Buxgalteriya hisobi bilan bog‘liqligi: Ichki nazorat buxgalteriya ma’lumotlarining to‘g‘ri va o‘z vaqtida shakllanishini nazorat qiladi. Bu tizim orqali buxgalteriya hujjatlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatoliklar yoki firibgarliklarning oldi olinadi.

• Audit bilan bog‘liqligi: Audit jarayonida ichki nazorat tizimining samaradorligi baholanadi. Agar ichki nazorat tizimi kuchli bo‘lsa, auditorlar tashqi tekshiruvni qisqartirishi yoki ma’lumotlarga ko‘proq ishonishi mumkin. Bu esa audit jarayonini tejamli va samarali qiladi. Ilmiy jihatdan, ichki nazorat tizimi tashkilotning risklarni boshqarish, moliyaviy axborotlarning shaffofligini ta’minlash va strategik maqsadlarga erishishda muhim vosita sifatida qaraladi.

Hulosa va takliflar

Iqtisodiyotni rivojlantirishda buxgalteriya hisobi va auditning o‘rni nihoyatda muhim. Bu tizimlar korxonalarning samarali boshqaruvini ta’minlabgina qolmay, iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishga zamin yaratadi. Shu sababli quyidagi xulosalar va takliflarni ilgari suramiz: Xulosa:

1. Shaffoflik va ishonchlilikni oshirish: Buxgalteriya hisobi va audit korxona faoliyati to‘g‘risida aniq ma’lumot berib, shaffof boshqaruv uchun asos yaratadi.

2. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning negizi: Tizimli hisob va samarali audit iqtisodiyotni boshqarishda barqarorlikni ta’minlashning asosiy vositasi hisoblanadi.

3. Investitsion muhitni yaxshilash: Moliya hisobotlarining xalqaro standartlarga mosligi investorlarning ishonchini oshiradi.

4. Moliyaviy intizomni mustahkamlash: Soliq va qonunchilik talablarini bajarishga ko‘maklashadi.

Takliflar:

1. Texnologiyalarni joriy qilish va raqamlashtirishni kuchaytirish: Zamonaviy hisob-kitob dasturlarini (masalan, 1C, ERP, SAP) keng joriy etish. qo‘llash. Elektron hujjat almashish tizimlarini yaratish va korxonalarda faol Sun’iy intellekt va big data tahlilidan foydalanib, buxgalteriya hisobi va audit jarayonlarini avtomatlashtirish.

2. Malakali kadrlar tayyorlash va bilimlarni oshirish: Buxgalter va auditorlar uchun xalqaro sertifikatlash dasturlarini (masalan, CPA, ACCA, CMA) kengroq targ‘ib qilish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash. Amaliyotga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini rivojlantirish, oliy ta’lim va amaliyot o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash. Buxgalteriya hisobi va audit bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalarni xalqaro standartlarga moslashtirish.

3. Huquqiy va normativ bazani takomillashtirish: Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini (XMHS) to‘liq joriy etish. Auditorlik faoliyatini yanada tartibga soluvchi yangi qonunlarni ishlab chiqish. Buxgalteriya va audit sohasida korrupsiyani kamaytirish uchun kuchli nazorat mexanizmlarini joriy etish.

4. Ijtimoiy ongni oshirish va xabardorlikni kuchaytirish: Korxona rahbarlari va xodimlar o‘rtasida buxgalteriya hisobi va auditning ahamiyati haqida seminar va treninglar o‘tkazish. Buxgalteriya va audit faoliyati samaradorligini oshiradigan ijtimoiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash.

5. Hududiy rivojlanishga ko‘maklashish: Mahalliy korxonalar uchun buxgalteriya va audit bo‘yicha maxsus o‘quv kurslarini tashkil qilish. Qishloq xo‘jaligi va kichik biznes korxonalariga buxgalteriya hisobi va audit xizmatlarini arzon narxlarda taqdim etish uchun davlat subsidiyalarini joriy etish.

6. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish: Xalqaro tajriba asosida buxgalteriya hisobi va audit jarayonlarini takomillashtirish. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali malakali kadrlar tayyorlashga ko‘mak berish.

Ushbu takliflarni amalga oshirish iqtisodiyotni yanada shaffof va samarali boshqarish, investitsion muhitni yaxshilash va korxona faoliyatining barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu o‘zgarishlar uzoq muddatli rivojlanish strategiyalari uchun mustahkam poydevor yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga qilgan murojaatidan olingan.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-maydagi "Buxgalteriya hisobi va audit sohasida shaffoflikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori.
3. Qudratillayev B., Ergashev I. "O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi va auditning rivojlanishi". Toshkent: Fan, 2022.
4. Axmedov T., Tursunov I. "Buxgalteriya hisobi va xalqaro standartlar". Samarqand, 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to‘g‘risida"gi qonuni (so‘nggi o‘zgartirishlar bilan).
6. Ubaydullayev Z. "Buxgalteriya hisobi asoslari". Toshkent: Oliy ta’lim, 2020.
7. International Financial Reporting Standards (IFRS). www.ifrs.org
8. International Standards on Auditing (ISA). www.ifac.org
9. Kaplan R., Norton D. "The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action". Harvard Business Review Press, 1996.
10. Bragg S. "Accounting Best Practices". Wiley, 2022.
11. Arens A., Elder R., Beasley M. "Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach". Pearson, 2023
12. Karimov A. "O‘zbekistonda raqamli buxgalteriya tizimlarini joriy qilishning ahamiyati". "Iqtisodiyot va innovatsiyalar" jurnali, 2023.
13. Saidova G. "Auditning iqtisodiy barqarorlikka ta’siri". "Moliya va buxgalteriya hisobi" jurnali, 2022.
14. OECD. "Enhancing Integrity in Public Sector Auditing". OECD Publishing, 2021.
15. Deloitte. "Digital Transformation in Accounting and Auditing". Deloitte Insights, 2020.
16. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy sayti: www.mf.uz
17. Buxgalteriya hisobi bo‘yicha xalqaro tahlillar: www.accountingtools.com
18. World Bank Report on Accounting and Auditing Reforms in Developing Countries. www.worldbank.org
19. PwC Uzbekistanning hisobotlari: www.pwc.com/uz